



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Kredit bosh direktori:
B.Mullajanov

«24» mart 2026 y.
№ 261

**“Garovga taqdim qilinayotgan mol-mulklarning bozor narxlarini dasturiy
ta’minot orqali tezkorlik bilan real vaqt rejimida aniqlash”**

I. Texnik topshiriq bo'yicha umumiy ma'lumotlar

1.1. Buyurtmachi:

Buyurtmachi nomi: "Biznesni rivojlantirish banki" ATB;

Manzili: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18A uy;

Telefon raqamlari: 78-150-93-39 (ichki raqam – 157).

1.2. Bajaruvchi: Xizmatni taklif etuvchi tashkilot – keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb nomlanadi.

1.3. Xizmat nomi: Garovga taqdim qilinayotgan mol-mulklarning bozor narxlarini dasturiy ta'minot orqali tezkorlik bilan real vaqt rejimida aniqlash.

1.4. Xizmatdan foydalanish usullari:

a) "Bajaruvchi"ning dasturiy ta'minoti (veb-havolasi) orqali;

b) "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi"ning axborot tizimlari o'rtasida o'zaro "API" ("Application Programming Interface") integratsiyasini yo'lga qo'yish orqali.

1.5. Moliyalashtirish manbai: "Buyurtmachi"ning o'z mablag'lari hisobidan.

1.6. Xizmat ko'rsatish muddati:

"Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy.

1.7. Xizmatni ishga tushirish vaqti:

"Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida.

II. Ishlab chiqish uchun huquqiy asoslar

- O'zbekiston Respublikasi prezidentining 26.12.2025-yildagi "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 259-sonli farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarori;

- Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrdagi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish" tartibi.

Texnik topshiriq (reglament) O'zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

III. Xizmat ko'rsatishning hisob-kitob tartibi

3.1. Hududlar kesimida taqsimot: Oylik to'lov summasi 14 ta hududiy bo'linmaning (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) har biri uchun teng miqdorda, ya'ni har bir hudud uchun hisoblanadi.

3.2. To'lov shakli va muddati: To'lovlar har oy yakuni bilan, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha elektron hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi (Akt) har ikki tomonlama tasdiqlangandan so'ng, keyingi oyning 15-sanasiga qadar naqd pulsiz shaklda, "Bajaruvchi"ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IV. Xizmatning asosiy foydalanuvchilari.

Asosiy foydalanuvchilar – "Buyurtmachi"ning respublikamizning 14 ta hududida joylashgan BXO/BXM/BXKM xodimlari, shu jumladan Bosh ofisda faoliyat yurituvchi xodimlar.

Xizmat bo'yicha administrator – Dasturiy ta'minot (tizim) foydalanuvchilari tarkibini shakllantirish, ularni rollariga va huquqlariga mos ravishda tizimga birlashtirish, tizimning talabga mos ravishda ishlashi va undan foydalanish monitoringini olib borishga mas'ul bo'lgan "Buyurtmachi"ning Bosh ofisida faoliyat yurituvchi xodimlari. (keyingi o'rinlarda – "administrator" deb yuritiladi)

Tizim ma'muri (-lari) – Tizimni bir maromda to'liq va sifatli ishlashi uchun "Bajaruvchi" tashkilot tomonidan birlashtirilgan mas'ul xodim (-lar).

Tizim ma'muri quyidagi vazifalarni bajarish imkoniga ega bo'lishi lozim:

- tizim foydalanuvchilari hamda tizim administratorini "login" va "parol"lar bilan ta'minlash;

- tizimda yuzaga keladigan nosozliklar hamda ularni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralarni batafsil qayd etib borish va bunday nosozliklarni o'z vaqtida kamaytirish choralari ko'rish.

V. Xizmatning asosiy vazifalari

Xizmatning asosiy vazifasi garovga taqdim qilinayotgan mol-mulkning bozor narxlarini tezkorlik bilan real vaqt rejimida onlayn aniqlashdan iborat:

5.1. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulk avtotransport vositalari va maxsus texnikalar turkumiga mansub bo'lganda, tizim ushbu turkumga mansub va/yoki o'xshash mol-mulk bo'yicha ma'lumotlar taqdim etuvchi mahalliy analog saytlar (olx.uz, avtoelon.uz, gipr.uz, birbir.uz, autostrada.uz, e-auksion.uz, flagma.uz, xarid.uzex.uz, xt-xarid.uz va boshqalar) bilan solishtirgan holda ma'lumot taqdim etish;

5.2. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulk ko'chmas mulklar turkumiga mansub bo'lganda, ko'chmas mulklarga doir ma'lumotlarni olishda tizim ushbu turkumga mansub va/yoki o'xshash (analog) mol-mulk bo'yicha ma'lumotlar taqdim etuvchi mahalliy saytlar (uybor.uz, olx.uz, gipr.uz, birbir.uz, e-auksion.uz, flagma.uz, xarid.uzex.uz, xt-xarid.uz va boshqalar) bilan solishtirgan holda hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga yoki ushbu agentlikka ulangan tashqi rasmiy manbalarga integratsiya qilgan holda ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha ma'lumotlar (obyekt turi va uning umumiy, yashash hamda foydali maydonlari, mulkdorlar soni, kadastr qiymati, ro'yxatdan o'tkazish sanasi, ko'chirma raqami va boshqalar)ni taqdim etish.

5.3. "Bajaruvchi" tomonidan "tizim" yoki "API" orqali mol-mulk bo'yicha baholash ma'lumotlari (natijalari) unikal "QR-kod" bilan "PDF" shaklli elektron ravishda taqdim etilganda, mazkur ma'lumotlarning soniga cheklov o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

VI. Xizmatdan "Dasturiy ta'minot (veb-havola)" orqali foydalanish tartibi

6.1. Dasturiy ta'minot (tizim)ga jahon internet tarmog'ining har qanday internet brauzerlari (Google, Mozilla firefox, Internet explorer va boshqalar) foydalangan holda "Bajaruvchi" tomonidan berilgan maxsus "login" va "parol" yordamida tizimga kiriladi.

Shaxsiy kabinet (veb-havola)ga kirishning taxminiy ko'rinishi quyidagi 1-rasmda aks ettirilgan:

LOGIN

KIRISH

	LOGIN
	PAROL



Tizimning asosiy sahifasida (interfeysi) **xizmat turlari, baholashga doir me'yoriy hujjatlar, bajaruvchi haqida ma'lumotlar va tilni tanlash** bo'yicha maxsus tugmalar joylashgan bo'ladi (2-rasm):

XIZMATLAR MEYORIY HUJJATLAR BAJARUVCHI HAQIDA MA'LUMOTLAR RUSCHA (RU) LOGIN



AVTOMATIK ONLAYN BAHOLASH DASTURI

Tizim kamida 2 (ikki) til, **o'zbek va rus tillariga** moslashgan bo'lishi lozim.

Xizmatlar" tugmasi ustiga bosilganda, "Avtotransportni baholash" va "Ko'chmas mulkni baholash" yacheykalari yangi oynada paydo bo'ladi.

Agar garovga taqdim qilinayotgan mol-mulk avtotransport turkumiga mansub bo'lsa, ushbu avtotransportga doir ma'lumotlarni tegishli hujjatlardan (egasining pasport ma'lumoti/guvohnomasi, texnik pasporti va boshqalar) foydalangan holda yangi oynada mavjud bo'lgan quyidagi yacheykalarga kiritadi (4-rasm):

Viloyat

Tuman

Ob'ekt manzili

Baholangan ob'ekt manzili

Mulk egasi nomi

Mulk egasi STIRi

Avtotransport raqami

Avtotransport turi

Avtotransport turi

Ishlab chiqarilgan yili

Avtotransport turi

Eskirish qiymati foizda (texnik holatidan kelib chiqib tanlanadi)

BAHOLASH

Ushbu rasmda ko'rsatib o'tilgan barcha yacheykalar to'ldirilgandan so'ng "BAHOLASH" tugmasi bosiladi, mazkur bosilgandan so'ng ko'pi bilan **10 soniya ichida** unikal "QR-kod" va "PDF" havolasi orqali baholash ma'lumoti (natijasi) taqdim etiladi.

6.2. Agar garovga taqdim qilinayotgan mol-mulk ko‘chmas mulk turkumiga mansub bo‘lsa, ushbu ko‘chmas mulkka doir ma‘lumotlarni tegishli hujjatlardan (egasining pasport ma‘lumoti/guvohnomasi, kadastr ko‘chirmasi va boshqalar) foydalangan holda yangi oynada paydo bo‘lgan quyidagi yacheykalarga kiritiladi (5-rasm):



Viloyat	
Tuman	
Ob'ekt manzili	
Baholangan ob'ekt manzili	
Mulk egasi nomi	
Mulk egasi STIRi	
Kadastr raqami	01:05:01:03:002
Avtotransport turi	Chet el transporti
Bino turi	Ko'p qavatli bino
Bino devori	G'isht
Bino holati	Yaxshi
Aloxida qurilgan bino	Yo'q
Bino qavatlilik	5 qavat
Qavati	3-qavat

Ushbu rasmda ko‘rsatib o‘tilgan barcha yacheykalar to‘ldirilgandan so‘ng “BAHOLASH” tugmasi bosiladi, mazkur bosilgandan so‘ng ko‘pi bilan **10 soniya ichida** unikal “QR-kod” va “PDF” havolasi orqali baholash ma‘lumoti (natijasi) taqdim etiladi.

6.3. “Baholashga doir me‘yoriy hujjatlar” bo‘limi - Me‘yoriy hujjatlar qismida baholovchi tashkilot tomonidan ko‘rsatilayotgan barcha xizmatlar qaysi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi va ushbu hujjatlarning yozma va elektron shakli tizimda doimiy ravishda bo‘ladi.

6.4. “Bajaruvchi haqidagi ma‘lumotlar” bo‘limi – Mazkur bo‘lim 4 (to‘rt) guruhga bo‘linadi va ular quyidagicha:

- 🕒 **Umumiy ma‘lumot;**
- 🕒 **Aloqa;**
- 🕒 **Ekspertlar;**
- 🕒 **Ko‘p beriladigan savollar.**

Ushbu guruhlar “Bajaruvchi” to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlar, shuningdek ular bilan yozma yoki og‘zaki ravishda bog‘lanish uchun uyali aloqa raqamlari va elektron manzili,

ekspertlari, shuningdek tizimdan foydalanish bo'yicha beriladigan savollarni o'z ichiga qamrab oladi.

VII. Xizmatdan "API" almashgan holda foydalanish tartibi

Xizmatdan mazkur usul orqali foydalanish bo'yicha ko'rsatib o'tilgan barcha "API"lar taxminiy bo'lib, tomonlar o'rtasida shartnoma imzolangandan so'ng haqiqiysiga o'zgartiriladi.

7.1. Avtotransport va maxsus texnikalarni onlayn baholash uchun <https://api-v2.1325.uz/api/bank/comparative> manziliga POST so'rovi yuboriladi.

So'rov yuborish uchun asosiy parametrlar:

№	Parametrlar	Tavsifi	Tipi	Majburiyligi	Izoh
1	ownerType	Mulk egasi turi	String	Ha	Jismoniy (Physical) yoki Yuridik (Legal) shaxs
2	autoTypeDto	Avtotransport ma'lumoti	Object	Ha	ID raqami va to'liq nomi
3	region	Hudud ma'lumoti	Object	Ha	SOATO kodi bo'yicha
4	madeYear	Ishlab chiqarilgan yili	Integer	Ha	Transport chiqarilgan yil
5	fuelType	Yoqilg'i turi	String	Ha	Benzin, Metan, Propan va h.k.
6	overpassKm	Bosib o'tgan yo'li	Long	Ha	Kilometr hisobida
7	technicalConditionOfCar	Texnik holati	String	Ha	Yangi, yaxshi, qoniqarli
8	dilapidationValueByExpert	Ekspert eskirishi	BigDecimal	Ha	Ekspert yo'li bilan aniqlangan foiz

7.2. Baholash ma'lumotnomasi (Response)

So'rov yuborilgandan so'ng tizim quyidagi javobni qaytaradi:

- 🕒 **price:** Avtotransportning bozor qiymati (milliy valyuta so'mda).
- 🕒 **reportId:** Baholash ma'lumotining unikal raqami.
- 🕒 **PDF ma'lumotnoma:** Olingan reportId orqali [api/bank/auto/report/{reportId}](https://api-v2.1325.uz/api/bank/auto/report/{reportId}) manzildan tayyor baholash xulosasini yuklab olish mumkin.

7.3. Ko'chmas mulklarni (xovli joy, ko'p qavatli uydagi xonadon, noturar bino-inshootlar) onlayn baholash uchun <https://api-v2.1325.uz/api/bank/comparative> manziliga POST so'rovi yuboriladi.

So'rov yuborish uchun asosiy parametrlar:

Parametrlar	Tavsifi	Tipi	Majburiyligi	Izoh
regionCode	Shahar va tuman kodi	String	Ha	SOATO kodlari bo'yicha
categoryCode	Bino turi	String	Ha	Kvartira, xovli yoki noturar
totalArea	Umumiy maydon (kv.m)	Numeric	Ha	Kadastr bo'yicha
wall	Bino devori turi	String	Ha	Pishgan g'isht, panel va h.k.

state	Ta'mir holati	String	Ha	
floor / storey	Qavati va qavatligi	Integer	Ha	150 qavatgacha bo'lgan chegarada
cadastreDocNumber	Kadastr raqami	String	Ha	Maxsus maska asosida
values	Qo'shimcha parametrlar	Object	Ha	Kommunikatsiya va qulayliklar

VIII. Tizimni kafolatli texnik qo'llab-quvvatlash

“Bajaruvchi” shartnoma imzolangan va “dasturiy ta'minot”/“API” orqali xizmat ko'rsatish ishga tushirib berilgan kundan boshlab **12 (o'n ikki) oy davomida** “Buyurtmachi”ni kafolatli mazkur xizmat bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlaydi.

Kafolatli texnik qo'llab-quvvatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tizim yuzasidan foydalanishga doir savollar bo'yicha telefon, elektron manzil (pochta) va boshqa aloqa vositalari orqali “Buyurtmachi”ga maslahatlar berish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlash guruhi tuzish;
- tizimni ishlatish jarayonida aniqlangan (yuzaga kelgan) muammo va kamchiliklarni bartaraf etish;
- tizimda aniqlangan xatoliklar tuzatilgandan keyingi amaliy dasturiy vositalarning yangilangan versiyalarni bepul o'rnatib berish;
- har bir baholash natijasi uchun unikal “QR-kod” va “PDF” havolasi taqdim etish;
- Ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash;
- tizimning 24/7 ishlash koeffitsiyenti 99.5% dan past bo'lmasligi lozim.

IX. Tizimga qo'yilgan talablar

Tizim quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mazkur texnik topshiriqning **5.1** va **5.2**-bandlaridagi vazifalarni lozim darajada bajarishi;
- “Buyurtmachi”ning ehtiyojlariga ko'ra tizimga kiritiladigan kichik o'zgarishlarga tez va oson moslashuvchan bo'lishi, tizimni saqlash va texnik qo'llab-quvvatlash;
- tizimning funksional imkoniyatlari ko'paytirish orqali takomillashtirib borish;
- ma'lumotlarning qulay va tushunarli ko'rinishlarda aks ettirilishini ta'minlashi;
- ma'lumotlarni himoya qilinishini ta'minlashi va foydalanuvchilarning rollariga mos funksiyalarga ruxsat berishi;
- ma'muriy interfeysdan foydalanishi mumkin bo'lmagan xodimlar va ruxsatsiz shaxslarning kirishining oldini olish hamda xavfsizlikni ta'minlash uchun parol berilgandan keyingina interfeysga kirishni ta'minlash;
- hisobot va tahlil moduliga ega bo'lishi;
- ma'lumotlar avariya holatlarida zahira qilinadigan fayllarda saqlash.

kelishuvchilar: O'.Meyliyev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=fE87cR35&id=814f045c-24a1-41a0-be98-a3f27774de54>